



O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHDA IFODALI O'QISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY QOBILYATI VA IFODALI O'QISHNING O'ZARO ALOQADORLIGI.

Qosimova Aziza Farhod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14793565>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 31-Yanvar 2025 yil

KEYWORDS

ifodali o'qish, o'zbek tili, savodxonlik, nutq, nutqiy qobilyat usul, vosita, intonatsiya, ohang, urg'u, diksiya, talaffuz.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qishni rivojlantirish shu bilan birgalikda boshlang'ich sinif o'quvchilarining savodxonlik darajasini oshirishda ifodali o'qishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishning hozirgi kundagi holati o'quvchilarda ifodali o'qish ko'nikmalarini oshirishga yo'naltirilgan. Bu holat o'qituvchilarni o'quvchilarga matnlarni to'g'ri va yuqori darajada yetkazishga o'rgatish, o'quvchilarning badiiy asarlarni tushunish va uni his qilish qobilyatini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Strategiyalar ifodali o'qish qobilyatini sxemalashtirish, turli xil o'quv vositalarini qo'llagan holda tushunishni chuqurlashtirish va buni amalga oshirish uchun rollarga kirib o'qish faoliyatini yanada rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Turli xil o'qish uslublari va janrlari orqali o'quvchilarning muloqot qobilyatlarni rivojlantirishga, o'qituvchilarning o'quvchilarga turli xil matnlarning badiiy va ifodaviy mazmunini anglashlariga yo'nalish ko'rsatishga alohida ahamiyat qaratiladi. Ushbu yondashuv nafaqat savodxonlikni darajasini ko'taradi, shu bilan birgalikda boshlang'ich ta'lim jarayonida umumiy ta'lim sifati darajasini ham yaxshi darajaga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda ifodali o'qishga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ularning umumiy o'qish va nutqiy qobilyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligini oshirish badiiy janrdagi asarlarni o'qib-o'rganish bilan bir qatorda, o'quvchilar ularning har birini chiroyli nutq va ifodali talaffuz bilan o'zga shaxslarga yetkazishni o'rganadilar. Chunki ifodali o'qish orqali har bir o'quvchi badiiy asar mazmuniga chuqur kirib boradi, nutqiy imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanadi, personajlarning ichki ruhiy olamini anglab yetishni o'rganadi. Bu bolalarning nutqiy bilimlarini chuqurlashtiradi, shu bilan birgalikda, og'zaki nutq vositalari va ularni nutqiy jarayonda to'g'ri va o'rinli qo'llay olish ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi. Boshlang'ich sinif o'quvchilarining ifodali o'qish holati ona tili va o'qish darslarida o'qituvchining ifodali o'qishi orqali ya'ni, kuzatish va o'rnak olish orqali yaxshilanadi.

Ifodali o'qish qobilyati qo'shimcha mashqlar orqali yanada mustahkamlanadi, turli xil metod va vositalar bilan ko'nikma hosil qilinadi. Albatta, bu jarayonda pedagog ko'rgazmali qurollar va o'quv-uslubiy vositalaridan samarali foydalanadi. Pedagogning nutqiy qobilyati qanchalik ravon, ifodali va mazmunli bo'lsa, uni tinglayotgan auditoriyadagi o'quvchilar tafakkurida shunchalik yuqori natija qoldiradi.

O'qituvchining har bir so'zi, gapi ravon, mazmunan bog'langan, talaffuzi ravon bo'lishi kerak. Ifodali o'qish tamoyili o'qilayotgan matnning g'oyaviy-badiiy mazmuniga kirib borishdan iborat. Masalan, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida ertak janriga oid asarlarni o'rganish jarayonida eng birinchi navbatda ertaklarning mazmuniy va g'oyaviy mohiyatini to'g'ri va to'liq anglash shu bilan birgalikda o'quvchilarga uni yetkazish ham muhim ahamiyatga ega. Hayvonlar haqidagi, sehrli va sarguzasht ertaklar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qiziqarli va ertak personajlarining nutqi o'quvchilar tomonidan tez va oson o'rganiladigan shu bilan birga xotirasida qolish darajasi yuqori bo'lishi kerak bo'lgan asarlar ro'yxatini tashkil qiladi.

O'qituvchi-pedagog o'quvchining shaxsiy-individual va yosh xususiyatlariga ya'ni, xulq-atvoriga, irodasiga, xarakteriga ta'sir qiladi, nutq orqali uning dunyoqarashini kengaytiradi. O'quvchilarga ertak janridagi asarlarni o'rgatish jarayonida o'qituvchining xatti-harakati ham muhim ro'l o'ynaydi. O'qituvchi o'z ishiga alohida bir e'tiborli munosabatni yarata olishi kerak va o'quvchilar ustozining ifodali va ta'sirli nutqi orqali nimani tinglayotganliklarini tushunadi. O'quvchilarga matnni ifodali o'qishga o'rgatishda og'zaki nutq jarayoni qay tarzda amalga oshiriladi:

-o'zining fikrini erkin tarzda ifodalash shaklida;

-fikir va tajribalar almashish shaklid;

-badiiy asarlarni ifodali o'qish shaklida, ya'ni ertak matni har doim so'zlovchining, o'quvchining fikrlari, his-tuyg'ulari va qarashlariga asoslanadi. Ayni vaqtda, o'quvchilar bilan rolli o'yinlarni bajarish ularning dunyoqarini yanada shakllantirishga ham hissa qo'shadi, ularning fikrlashiga ijobiy tarzda kirib boradi.

Shu bilan birgalikda, o'quvchilar tinglagan badiiy asarlaridagi ertak qahramonlarining nutqiga katta e'tibor va qiziqish bilan qarashadi va ularning harakatlarini kuzatish orqali unga nisbatan shaxsiy fikr va munosabatini bildirishga o'rganadilar.

Ma'lum bir matnni ifodali o'qish nafaqat og'zaki, balki yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Darsliklarda berilgan ertak, hikoya, masal, rivoyat kabi janrlarni ifodali o'qish, o'quvchining nafaqat og'zaki nutqini balki husnixat haqidagi bilimlarni asta-sekinlik bilan egallaydilar va turli xil matnlardagi yangi yoki o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarning ma'nosini o'qituvchining rahbarligi ostida o'rganib oladilar. Bu orqali o'quvchining lug'at boyligi oshadi, orfografik savodxonligi shakllanadi.

Turli janrlardagi badiiy asarlarni, matnlarni mazmunini tushungan holda to'g'ri talaffuz qilish sinfdagi boshqa o'quvchilarni ham yanada qiziqishga va epchillikka yo'naltiradi. Shuni nazarda tutish kerakki, badiiy matnlarning mazmuni intonatsiya orqali tinglovchining (o'quvchining) e'tiborini o'ziga jalb qiladi, ohang esa intonatsiyada bo'ladi va matndagi urg'u, ritm, diksiya kabi terminlarning o'zaro aloqadorligi hamda mutanosibliги natijasida yuzaga keladi.

Yuqorida berilgan fikrlar asosida bir qancha usullar orqali bolaning uuman olganda o'qishga bo'lgan qiziqishini, shu bilan birgalikda ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

- asosan yosh bolalar uchun yaratilgan kitoblar, qiziqarli mazmun va turli suratlar bilan boyitilgan kichik bukletlar orqali;

-ma'lum bir yoshga mos bo'lgan badiiy matnni har yarim soatda emas, o'n-o'n besh daqiqada o'rgatish;

- har kuni kitob o'qish;

-o'qib-o'rganilgan asarlarni oil ava yaqinlari davrasida muhokama qilish;

-matnni bolaning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlash va o'rgatish;

- Sevimli mualliflar va ularning asarlarini tahlil qilish, kichik kutubxonalar tashkil etish. Bu orqali o'quvchini kitobxonlikka, kitobsevarlikka yanada qiziqishini oshirish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirib borishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda qabul qilingan jahon tendentsiyalariga va shu bilan birgalikda statsitik ma'lumotlarga qaralganda, yosh avlodning kitob o'qishga bo'lgan qiziqish darajasi pasayib bormoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar, shu qatori, O'zbekistonda ham ushbu salbiy holatga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish va holatni ijobiy natijaga chiqarish vazifasi qo'yilgan va bu borada atroflicha ishlar amalga oshirilmogda. O'quvchilar o'rtasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi hozirgi global muammo sifatida qaralib, kelajakda butun aholi o'qish madaniyatining tizimli inqiroziga olib kelishi mumkinligini ham ko'rsatadi, bu ko'plab mamlakatlar, shu jumladan ,O'zbekistonni ham qamrab olayotgan vaziyat hisoblanadi. Bizning o'lkamiz qadim vaqtlardan beri butun jahonda eng ko'p kitobxonlariga ega mamlakat sifatida e'tirof etib kelingan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati insonlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadimiz yosh avlodni ma'naviy yetuk, barkamol, intellektual salohiyatli avlodga aylantirish. Tabiiyki, savodxonlik darajasi baland bo'lgan davlatning ta'lim tizimi ham yuqori darajada bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim

tizimimizda, maktablarda o'zbek tili qonun-qoidalari asosida darsliklar yaratilgan. Ushbu darsliklardagi matnlarni, xususan ona tili va o'qish savodxonligi darslarida berilgan turli janrlardagi asarlarni o'quvchilar tomonidan ifodali o'qishga o'rgatish orqali o'z ona tili va adabiyotiga bo'lgan e'tibor va hurmat ham yuksaladi. Ushbu asarlarni o'qish orqali o'quvchilarda yaxshilikka muhabbat, yomonlikdan nafratlanish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish, adabiy-estetik tafakkurni yuksaltirish o'qish darslarining mazmunini tashkil etadi.

Pedagoglar va talabalar ifodali o'qishga doir bilim va ko'nikmalarini sinfdan tashqari o'qish jarayonlarida ham egallashlari mumkin. Boshlang'ich ta'lim bo'g'inida sinfdan tashqari ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan bir qancha olimlarimiz tomonida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Metodist va olimlarimiz ushbu mavzu yuzasidan bir qator ilmiy maqolalar yaratishgan. Masalan, professor-olimlar Q.Abdullayeva, K.Qosimova, O.Safarov, S.Matchonov, B.Ma'qulova, T.Adashboyev, E.Abduvalitov, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yuldashevalar tomonida yaratilgan o'quv qo'llanmalari, metodik qo'llanmalar, darsliklar, ilmiy maqolalar va tezislari shular jumlasidandir. Ular o'zlarining ilmiy ishlarida darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun o'quvchilarning o'qish ko'nikmalari va ifodali o'qish

qobilyatlarini yanada takomillashtirish uchun kitob, matn va materiallarni to'g'ri tanlash ko'rsatmalari, mavzularni yosh va individual xususiyatlarga xos tarzda tanlash uchun maslahat va tavsiyalarni bayon qilishgan. Bundan tashqari, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarning badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, yozuvchi va shoirlar ijodini yaqindan o'rganish sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishning asosiy punktlaridan biri sifatida qaralgan.

O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish ularning badiiy va estetik didini ham rivojlantiradi, yanada yuksaltiradi. Og'zaki nutqning turli vositalar yordamida ifodali bo'lib yuzaga chiqishi, nutqning go'zall va ravon, tushunarli bo'lishiga ham xizmat qiladi. Badiiy asarni ifodali o'qishda o'quvchi asar g'oyasidan kelib chiqib,

uning mazmunini iloji boricha muallif niyatiga yaqinroq yetkazadi. Chunki ekspressivlikda asosiy tamoyil o'qish - o'qilayotgan narsaning g'oyaviy-badiiy mazmuniga kirishdir. Uning o'ziga xos jihatlardan biri ifodali o'qish insonda his-tuyg'ularni, kayfiyatni, aniqrog'i, hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Ifodali o'qish jarayonida asar voqealari, qahramonlar "jonlanadi", "tilga kiradi". Kitobxon bir vaqtning o'zida muallif, obraz yaratuvchi va ijrochi sifatida namoyon bo'ladi. Ifodali nutq san'atini o'rganishning muhim vositasi badiiy asarlarni ko'proq o'qishdir. Badiiy asar ko'p o'qilganda o'quvchi asar mazmuni va mohiyati, xarakter xususiyatlari, qahramonlarning maqsad va intilishlarini tobora yanada chuqur o'zlashtirib boradi. Kengi bosqichlarda o'quvchining og'zaki nutqida asar ruhiga mos ohang va intonatsiya ham ko'rinish ola boshlaydi. Badiiy janrdagi matnlarni o'qish orqali talaba, o'quvchi adabiy tilni puxta egallashiga va ifodali o'qish san'atini egallashiga yordam beradi, shu bilan birgalikda dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'quvchining og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishda nutqiy kopmetensiyalar alohida o'rin egallaydi. Nutqiy savodxonlikka erishish, nutq jarayonida badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish, o'quvchi nutqini ifodali, ravon va go'zal holatga keltirishda bu kompetensiyalar muhim ro'l o'ynaydi. Binobarin, badiiy adabiyot va ifodali o'qish san'ati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchini axloqiy-estetik tarbiyalashning eng samarali vositasi hisoblangan. Binobarin, yosh avlodni tarbiyalash vazifasi oldimzga qo'yilan eng asosiy yo'nalish bo'libgina qolmay, ma'naviy barkamollik ruhida yetishgan avlodlar ezgulik markazidagi ustuvor masalalardan biridir. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning tub zamiri ham barkamol va yetuk shaxslarni voyaga yetkazish va bu jarayonda ularning vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-muhabbat kabi insoniy fazilatlarini yuksaltirishdir. Buning uchun yoshlarning bilim olishga, o'qishga, kitobsevarlikka va ayni vaqtda badiiy adabiyot, adabiy asarlarni ifodali o'qishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish va rivojlantirish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rganish metodikasi. Mashhur-press.
2. Oripov. B. T "Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent 1983-yil
3. Rahmonova. Ye. R. Razzoqov. D. N "Pedagogik texnologiyalar" fanidan o'quv qo'llanma T.: 2007-yil
4. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism darslik, Toshkent. 2021
5. L. Qayumov. "Inqilob va ijod". O'zdavnashr, T., 1964-y, 141-bet.

6.A.Sa'diy. O'rta maktablarda adabiy o'qitish metodikasining asosiy masalalari, O'zdnashr. T., 1934-yil, 96-bet.

7.Rokeach M. The role of values in public opinion research // The Public Opinion Quarterly. Vol. 32. No. 4. – P. 547-559.

8.Hofstede G. Cultures and organizations. Software of the mind. – L.McGraw – Hill Book Company, 1991.

9.McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man – Cambridge; London: MIT Press, 1994.

10.www.ziyonet.uz

11.www.kitobxon.com



INNOVATIVE
ACADEMY